

Do'stlik tuman axborot-kutubxona markazi
Axborot bibliografiya xizmati



**Vaqtli matbuot nashrlari va boshqa turdagi nashrlarga bibliografik
tavsif berish.**

Uslubiy tavsiyanoma.

Vaqtli matbuot nashrlarga bibliografik tavsif berish

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari ishiga alohida e'tibor bilan qaraladi, to'rtinchi hokimiyat deb yuritiluvchi vositalar ommani dunyo va mamlakatimiz ichidagi siyosiy ahvol, oddiy, madaniy-ma'rifiy yangiliklar, voqealar, fan, texnika taraqqiyoti, kashfiyot va ixtirolar bilan tanishtiradi, kishilarni ularda faol ishtirok etishga jalb qiladi, ular badiiy, estetik didining shakllanishiga yordam beradi. Vaqtli matbuot nashrlari ommaviy axborot vositalari va umuman axborot resurslari orasida alohida o'rin tutadi.

Mamlakatimizda 1200 dan oshiq nomda o'zbek, qozoq, tojik, rus tillarida turli yoshdagi iste'molchilarga mo'ljallangan bo'lib, davlat va xususiy tashkilotlarning organlari gazeta va jurnallar nashr etiladi. Nashrning har bir chiqishida uning nomi, qachondan boshlab chiqa boshlagani, sanasi, tartib raqami, ta'sischi (muassis) tashkilot nomi, muharrir ismi shariflari, gazetalarda yana chiqishga ruxsat berilgan sana, har bir chiqish soni uchun javobgar shaxs, nashrning indeks raqami, tahririyot manzili, telefon raqamlari, faks raqami, bahosi, nashriyot yoki bosmaxona nomi, manzili ko'rsatiladi. (Ilova 3).

Gazeta bu vaqtning uzoq davom etmaydigan oraliqlari o'rtasida chiqadigan, rasmiy materiallar, tezkor axborot va dolzarb ijtimoiy siyosiy, ilmiy ishlab chiqarish va boshqa masalalar bo'yicha maqolalar, shuningdek, badiiy asarlar va reklamadan iborat davriy gazeta nashri.¹



Gazetalar

- chiqish sonlari va vaqti turlicha: haftalik, kunlik, bir haftada bir necha marta chiqadigan gazetalar. Masalan, "Afandi", "Oila va jamiyat", "Ma'rifat", "Tashkentskaya nedelya", "Vatanparvar", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Darakchi" gazetolari haftalik, "Toshkent oqshomi", "Vecherniy Tashkent", "Xalq so'zi", "Narodnoe slovo" gazetolari kunlik. Gazetalar hududiy qamrab olish darajasiga ko'ra respublika, viloyat, shahar yoki tuman gazetalariga, mazmuniga ko'ra universal yoki ixtisoslashtirilgan gazetalarga ajratiladi. Gazetalar kundalik voqealar, sanalar, muhim yangiliklar haqida axborot beradi,

¹ Ахборот кутубхона фаолиятига оид стандартлар тўплами. 3. Жилд. Давлатларaro стандарт. ГОСТ 7.60-2003. Нашрлар. Асосий турлари. Атамалар ва таърифлар. Б.347-348.

shuning uchun undagi ma'lumotlar tez eskiradi va tezkorlik bilan o'z vaqtida tarqatishni talab qiladi.

Jurnal

bu doimiy rubrikaga ega bo'lgan va turli masalalar bo'yicha maqolalar yoki referatlarni va adabiy badiiy asarlarni o'z ichiga olgan davriy jurnal nashri.



Jurnallar - universal va ixtisoslashgan mazmunga ega bo'ladi, ayrim bilim sohalariga oid jurnallar ham nashr etiladi. Jurnallar kitobxonlar guruhi, maqsadi va boshqa belgilariga ko'ra turlanadi. Ular ilmiy, kasbiy, ishlab-chiqarish, ilmiy-ommabop, adabiy-badiiy deb ham ajratiladi.

Ilmiy jurnallar – Nazariy tadqiqotlar to'g'risidagi maqolalar va materiallarni, shuningdek, ilmiy xodimlar uchun mo'ljallangan amaliy xarakterdagi maqola va materiallarni o'z ichiga olgan jurnal.

Jurnalga dastlab mamlakatimizning ko'zga ko'ringan olimlari, ijodkorlari, birinchi jurnalistlar muharrirlik qiladi. Otajon Hoshim, Qori Niyoziy, I. Islomov, I. Mo'minov, M. O'rozboyev, Yo To'raqulovlar muharrirlik qilgan. Jurnalda fanning barcha sohalariga oid maqolalar, xabarlar, mulohazalar, kashfiyotlar va ixtirolar haqidagi axborotlar, turli xil yangiliklar haqida ma'lumotlar beriladi. Jurnal rangli illyustratsiyalangan holda nashr etiladi.

Kasbiy ishlab chiqarishga oid jurnallar mutaxassis amaliyotchilarga mo'ljallangan, shu kasb doirasidagi materiallar haqida axborot beradi. "O'zbekiston matbuoti", "Kitob dunyosi", "Ibn Sino", "Biblioteka", "Bibliotekovedeniye", "Bibliografiya", "Kutubxona.UZ" kabi mahsus jurnallar.

Jurnalda respublika ommaviy axborot vositalari, axborot agentliklari, nashriyotlar, bosmaxonalar, kitob savdosi, ijodiy uyushmalar faoliyati haqida materiallar beriladi. Keyingi paytda ommaviy axborot vositalaridagi yangiliklar, ularda qo'llanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyalari, ularning ahamiyati, jurnalistlarning kasb mahoratini oshirish, boshqa xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik, ijodiy va amaliy tajriba almashuv sohasidagi ishlar, jurnalist

kadrlarni tayyorlash, dunyo miqyosidagi OAVlari faoliyatidagi o'zgarishlar va ilg'or tajribalar haqida materiallar berib borilmoqda.

Adabiy-badiiy, adabiy-ijtimoiy jurnallar - ular keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallan turli xil mavzularga oid materiallardan tashkil topadi. Ular kitobxonlarni mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlar mualliflarining eng yangi asarlari, tarjima asarlari bilan tanishtiradi.

Gazeta va jurnallarga bibliografik tavsif sxemasi

Asosiy sarlavha [Materialning umumiy ko'rinishi]: sarlavhaga tegishli ma'lumot / Javobgarlik to'g'risida ma'lumotlar. – O'ziga xos ma'lumotlar sohasi. – Chiqish ma'lumotlar sohasi. – Eslatmalar sohasi. – Standart raqami ISSN.

Yil, № . – nusxa.

Eslatma! Vaqtli matbuot nashrlariga tavsif berilayotganda Javobgarlik to'g'risida ma'lumotlar sohasiga "Muassis" yoziladi

Gazeta tavsifiga misol

Toshkent oqshomi [Matn] : shahar ijtimoiy-siyosiy gazetasi / Toshkent shahar hokimligi.-2014, mart.- Toshkent: Sharq, 2014.- haftaning dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba va juma kunlari chiqadi.- 1966-yil 1 iyuldan chiqa boshlagan.-ISSN 8830-5996.

2014, № 46 (12.607).- 14170 nusxa.


Jurnal tavsifiga misol

Kutubxona.UZ. [Matn]: axborot kutubxona texnologiyalari/ O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi. – 2013, dekabr. – Toshkent: Kamalak print, 2013. – yilda 4 marta chiqadi. – 2009-yil ro'yxatga olingan. – ISSN 2010-9784. 2013, №4(20)- 1000 nusxa.



Xalq so'zi (ruscha: Народное слово) — ommaviy ijtimoiy-siyosiy gazeta. Muassisi — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Bosh muharriri O'tkir Rahmatovich Rahmatov. Adadi 34000 (2004).

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan. Haftada 5 marta, o'zbek va rus tillarida chop etiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, uning organlari, Vazirlar Mahkamasi hamda mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini, mamlakatimizda va xorijda ro'y berayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy jarayonlarni xolis va beg'araz yoritish tahririyatning asosiy vazifasi hisoblanadi.



«Yangi O'zbekiston»

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muassisligida 2020 yil 25 yanvardan boshlab «Yangi O'zbekiston» gazetasi chop etila boshlandi. Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan islohotlar samaralarini va yurtimizda hamda dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarni keng jamoatchilikka tezkor va xolis yetkazib berishda yangicha yondashuvlar

talab etilib amalga oshirmoqda.



yoritib boradi.



ko'plab muommolarga yechim topilgan


"MA'RIFAT" — Toshkentda haftasiga 2 marta chiqadigan ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy yo'nalishdagi xalq ziyolilari gazetasi. Muassislari — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari, O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmalari markaziy qo'mitasi. Dastlab 1931-yil 4-iyulda "Madaniy inqilob" nomi bilan chiqqan. 1938-yil 25-yanvardan "O'qituvchilar gazetasi" nomi bilan, 1991-yil iyuldan hozirgi nomda chiqadi. 1941-yil 1-iyuldan 1946-yil 9-martgacha gazeta vaqtincha o'z faoliyatini to'xtatgan. Gazeta ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'zda tutilgan masalalarni muntazam

• **Ishonch** — O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi davriy nashri. Gazeta 1991-yil 21-mart kuni ilk bor nashr etilgan^[1]. 2018-yildan buyon barcha sahifalari rangli chop etib kelinmoqda^[2]. Birinchi muharriri — To'liq Qozoqboyev. *Ishonch* 2019-yil 3-may „Oltin qalam“ milliy mukofoti matbuot yo'nalishi g'olibi. 2023-yil hisobida gazetaning 31576 nafar pullik obunachilari mavjud.

Gazeta mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'rifiy hayotini yoritib boradi^[3]. *Ishonch* 2018-yilda O'zbekiston Milliy Kutubxonasi matbuot xizmati ma'lumotiga ko'ra O'zbekistonda eng ko'p o'qiladigan gazetalar 5 taligidan joy olgan^[4]. Shuningdek, shu kunga qadar gazetada chop etilgan tanqidiy maqolalar sababli




“Kitob dunyosi” – axborot ma'lumot gazetasi. Toshkent shahrida oyda 2-marta o'zbek va rus tillarida chiqadi. Muassislari: O'zbekiston Respublikasi matbuot va axborot agentligi, Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, O'rta maxsus, kasbhunar ta'limi markazi. 1-soni 2001-yil 8 dekabrda nashr etilgan. „Kitob dunyosi“ o'quvchilarni O'zbekiston kitob bozoridagi yangiliklardan xabardor etadi, mamlakat nashriyotlarida chop etilayotgan muhim kitob va risolalar to'g'risidagi dolzarb ma'lumotlarni mutaxassis va kitobxonlarga tezkorlik bilan yetkazadi. Adadi 1500 nusxa.



"TAFAKKUR" — ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy, rangli-bezakli jurnal.

1994-yildan Toshkentda nashr etiladi. Muassisi — O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat kengashi.

Jurnalining asosiy vazifasi xalqimizning boy ma'naviy-madaniy merosi, sharqona va umuminsoniy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni yuzaga chiqarish, shuningdek, milliy qadriyatlarimiz va ulug' mutafakkirlarimiz merosidan xalqimizni baxramand qilish, islom dinidagi insonparvarlik g'oyalarining yosh avlod qalbidan joy olishiga ko'maklashishdan iborat.



Sharq yulduzi — adabiy-badiiy va ijtimoiy jurnal. Muassisi O'zbekiston yozuvchilari uyushmasi. Toshkentda 1 yilda 4 marta nashr etiladi. Dastlab „O'zbekiston sho'ro adabiyoti“ (1932-yil iyun-iyulda), „Sovet adabiyoti“ (1935-yil, yanvar), „O'zbekiston adabiyoti va san'ati“ (1935-yil, iyul) nomlarida chop etilgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida vaqtincha to'xtatilgan. 1946-yildan hozirgi nomda chop etila boshlagan. Sahifalarida O'zbekiston va chet el yozuvchilarining badiiy asarlari nashr etiladi. Adabiyot va san'atning muhim sohalariga bag'ishlangan adabiy-tanqidiy, publitsistik maqolalar ham e'lon qilinadi.



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari olamining kutubxona, arxiv, kitob nashriyotlariga bag'ishlangan ushbu ilmiy-amaliy jurnal bir yilda to'rt marotaba chop etiladi. Axborot-kutubxona sohasidagi ilmiy-uslubiy jurnal. Jurnalda nafaqat O'zbekistondagi balki xorijiy mamlakatlarning axborot-kutubxona ishi sohasidagi yetakchi mutaxassislarning maqolalari chop etiladi. Undan tashqari jurnalda axborot-kutubxona olami qonunchiligi va xalqaro voqealar haqida axborotlar beriladi. Jurnal axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislari, kutubxonachilar, kitobshunoslar, bibliograflar, o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, madaniyat va san'at kollejlari va oliy o'quv yurti talabalari uchun mo'ljallangan.



Jurnalning maqsadi – axborot-kutubxona faoliyatini keng miqyosda yoritish va uning rivojiga hissa qo‘shayotgan insonlar, voqealar, yutuqlarni o‘z sahifalarida aks ettirgan holda respublika miqyosida va undan tashqarida keng ommani qo‘llab-quvvatlash va shu sohada ilmiy tadqiqotlarni rivojlan-tirish maqsadiga safarbar etishdan iborat: Bir yilda necha marta nashr qilinadi: Yilning har choragida bir marta nashr qilinadi.

Jurnal tashkil etilgan yil: 2015 yil



Jurnal ([fransuzcha](#): *journal* — „kundalik daftar“) — bosma davriy nashr. Axborotni tanlash, tahlil etish va baholashning asosiy vositalaridan biri. Jurnal gazeta kabi jamoatchilik fikriga ta’sir o‘tkazish yo‘li bilan uni shakllantirishga xizmat qiladi; omma ijtimoiy ongiga muayyan g‘oya va qadriyatlarni singdiradi. Jurnallar dastlab Fransiya nashr qilingan. Inglizcha „Magazine“, fransuzcha „Revue“, nemischa „Zei schrift“, ispancha „Relista“ so‘zlari ham jurnal ma’nosini anglatadi. Chop etilish muddati (davriyligi) jihatdan jurnallar, odatda, haftada, o‘n kunda, ikki haftada, oyda, ikki oyda, har uch oyda, yarim yilda bir marta nashr qilinadi. Bunday davriylik jurnallarda turmush voqealarini kundalik gazetaga nisbatan batafsilroq va chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Jurnallar mundarija yo‘nalishiga ko‘ra farqlanadi: ijtimoiy-siyosiy,

adabiy-badiiy, ishlab chiqarish-texnikaviy, ilmiy, ilmiy-ommabop va boshqalar. Jurnallar jamiyatdagi turli yoshdagi kishilarga mo‘ljallanadi.

Ko‘p darajali bibliografik tavsif birinchi navbatda ko‘p jildli va serial kabi ko‘p qismli xujjatlariga tuziladi. Ko‘p tomli nashrlarni ko‘p darajali va bir darajali tasvir berish mumkin.

Gazetalarga analitik bibliografik tavsif berish:

Xayriddin, Murod. Yangi axborot imkoniyatlari [Matn]/ Xayriddin Murod // Ma'rifat. – 2014. – 1 mart.

Mirkamolova, M. Ma'suliyat [Matn]/ M.Mirkamolova // Xabar. – 2014. – 31 oktabr.

Tursunov, L. Xamkorlikning yangi bosqichi [Matn]/ L. Tursunov // Xabar. – 2014. – 20 iyun.

Xalilova, G. Oqibati ayanchli illat [Matn]/ G.Xalolova // Xabar. – 2014. – 20 iyun.

Xudoyberganova, D. Go'dak uchun mashg'ulotlar [Matn]/ D.Xudoyberganova // Oila davrasida. – 2013. – 4 aprel

Jurnallarga analitik bibliografik tavsif berish:

Asqarov, R.A. Muzey ma'naviy qadratlar maskani [Matn]: Aloqa va axborotlashtirish sohasi tarixi va merosi jamoat fondi direktori R. A. Asqarov bilan suhbat / suhbatdosh M. Azizova // Infocom.UZ. – 2013. – №12. – B. 40-43

Mamatov, X. O'zbekiston Respublikasida fuqorolarning axborotga bo'lgan xuquqlarini amalga oshirishning konstitutsiyaviy xuquqiy asoslari [Matn] / X.Mamatova // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari : O'zbekiston gumanitar jurnali – 2014. – №2(66) – B. 65-69.

Jomonov, R. Talaba nutqi: muammo va yechimlar [Matn] / R.Jamonov //Talabalar dunyosi. – 2010. – № 08 (22) – B. 7.

Agzamova, D. Barkamol avlod tarbiyasida axborot kutubxona muassasalarining o'rni [Matn] / D. Agzamova // Kutubxona.UZ. – 2012. – № 1 (13) – B. 28-30.

Raximova, Sh. Axborot kutubxona xizmatini ko'rsatishning shakllari va usullari [Matn] / Sh.Raximova // Kutubxona.UZ. – 2013. – № 1 (17) – B. 14-17.

To‘plamlarga analitik bibliografik tavsif berish:

Ergasheva, Z. Yoshlik bahori [Matn]/ Z. Ergasheva // Ota: [to‘pl.]. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – I-bo‘lim. – B. 22-23.

Akbarova, A. Yozuvchilik bolalar uchun [Matn] / A.Akbarova // Bolajon: [to‘pl.]. – Toshkent: Sharq , 2014. – II bo‘lim. – B. 46-47.

Ko‘p jildli nashrlarga analitik tavsif berish

Akromov, A.I. Dostonlar [Matn] /I.A.Akromov // Caylanma: she’rlar, ruboiylar .- Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashrot, 2000. –J.3, II bob.- B.47-80.

Toxir Malik. Murdalar gapirmaydilar [Matn] /Toxir Malik //Tanlangan asarlar: qissa.- Toshkent: Sharq , 2006. –J.2.-B.100-150.

Avtoreferatlarga tavsif berish.

Avtoreferat bu ilmiy darajani olish uchun taqdim etiladigan, muallif tomonidan olib borilgan tadqiqot bo‘yicha tuzgan referatni o‘z ichiga olgan broshura ko‘rinishidagi ilmiy nashr.

Jumaniyozov, B.M. O‘zbek halq eposida yalmog‘iz obrazi [Matn]: fililog. fan. nomz ... dis avtoreferati : 10.01.09 : himoya qilingan 22.01.2002 : tasdiqlangan 10.07.2002 / Jumaniyozov Baxrom Matkarimovich ; O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi, Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot instituti.- Toshkent, 1996.- 24 b.

Avtoreferat tavsifi taxlili

Isoqova, R.SH. Urbanizatsion jarayonlarda milliy qadriyatlarning transformatsiyasi [Matn]: sotsiolog. fan. nomzodi... dis. avtoreferati : 22.00.04 : ximoya qilingan 15.04.06 : tasdiqlangan 15.09.06 / Isoqova Raximaxon Sharobiddinovna; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti.- Toshkent, 2006.-26 b.

Tavsif boshi - Isoqova, R.SH

Asosiy sarlavxa - Urbanizatsion jarayonlarda milliy qadriyatlarning transformatsiyasi

Materialning umumiy ifodalanishi-[Matn]

sarlavxaga tegishli ma’lumot– sotsiolog. fan. nomzodi... dis. avtoreferati : 22.00.04 : ximoya qilingan 15.04.06 : tasdiqlangan 15.09.06

Javobgarlik haqida ma’lumot – Isoqova Raximaxon Sharobiddinovna; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Chiqish ma’lumotlari - Toshkent, 2006

Jismoniy tavsifnoma soxasi -26 b

Dissertatsiyalarga tavsif berish.

Dissertatsiya bu ilmiy daraja olish uchun taqdim etiladigan, muallif tomonidan olib borilgan tadqiqot bo‘yicha yozilgan ilmiy nashr.

Dissertatsiya tavsifi taxlili

Iminov, A. A. Ekish meyorlari va takroriy ekinlarni kuzgi bug'doyning o'sishi, rivojlanishi va don xosildorligiga ta'siri [Matn]: k/x fan. nomzodi. ... dis: 6.01.09 : himoya qilingan: 01.06.2006 : tasdiqlangan 26.10.2006 / Iminov Abduvali Abdumannobovich ; O'zbekiston paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti. - Toshkent, 2006. - 158 b. - Foydalangan adabiyot ro'xati : b. 117-130. – Ilova : b. 131-158.

Tavsif boshi - Iminov, A. A.

Asosiy sarlavxa - Ekish meyorlari va takroriy ekinlarni kuzgi bug'doyning o'sishi, rivojlanishi va don xosildorligiga ta'siri

Materialning umumiy ifodalanishi-[Matn]

sarlavxaga tegishli ma'lumot– k/x fan. nomzodi. ... dis: 6.01.09 : himoya qilingan: 01.06.2006 : tasdiqlangan 26.10.2006

Javobgarlik haqida ma'lumot - Iminov Abduvali Abdumannobovich ; O'zbekiston paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti.

Chiqish ma'lumotlari - Toshkent, 2006

Jismoniy tavsifnoma soxasi -158

Eslatmalar sohasi - Foydalangan adabiyot ro'xati : b. 117-130. – Ilova : b. 131-158.

Nosirov, E. I. Qimmatli kog'ozlar bozorida tijorat banklari rolini oshirish masalalari [Matn] : iqtisod fan. nomzodi ... dis: 08.00.07 : himoya qilingan: 01.06.2006 tasdiqlangan 03.10.2006 / Nosirov Egamkul Ismoilovich ; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'ta mahsus ta'lim vazirligi, Toshkent moliya instituti. - Toshkent, 2006. - 152 b. - Foydalangan adabiyot ro'xati : b. 139-146. –Ilova :b. 147-152.

Foydalanilgan manba: **УМУМИЙ БИБЛИОГРАФИЯ** фани бўйича
ЎҚУВ УСЛУБИЙ МАЖМУА

Тузувчи: ТАТУ, ассистент Г.Э.Зиёдуллаева

Ushbu uslubiy tavsiyanoma kutubxonachilar uchun tayyorlandi.

Tayyorladi axborot bibliografiya xizmati rahbari M.A.Raximova.